
VOLUME 10, OCTOBER 2026
ISSN: 3060-4958







The Lingua Spectrum



UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY

MORE INFO:

www.lingvospektr.uz

t.me/thelinguaspectrum

CONTENTS

LINGUISTICS		**4**
Sulaymanova N.J.	A comparative analysis of the cognitive-semantic features of conceptual metaphors in English and Uzbek	5
Allayarova M.T.	Linguocognitive and linguocultural features of figurative toponyms in Uzbek and English	13
Tashpulatova Sh.Z.	Linguopsychological Foundations of the Expression of Mental States in English and Uzbek	20
Rakhimova U.S.	The poetics of the mother image in 19th-century English novels: the interpretation of biological and surrogative motherhood	27
Umarova Sh.I.	Combinatorial properties of collocations	33
Suvanova Kh.B.	Linguocognitive and pragmatic features of female inner speech: a comparative analysis of V. Woolf's "Mrs Dalloway" and O. Hoshimov's "Ikki eshik orasi"	41
Pazilova N.M., Nancy M. Ackles	National-cultural code and the linguistic construction of social identity in Jura Fozil's "The garden": A Linguopragmatic study	48
Saloxiddinov M.Sh.	Article title: cognitive-axiological features and linguocultural representation of the family concept in Uzbek and English	61
Kosheva D.Kh.	Linguocultural analysis of oral discourse: key parameters and methodological cautions	72
Jo'rayeva N.S.	Semantic gradation and stylistic differentiation of verbs expressing smiling in English and Uzbek	81
Abdulkhaeva M.M.	The role of paragraphemic devices in the theoretical and stylistic analysis of written discourse	87
Pazilova N.M., Makhmudova M.N.	Abdurauf Fitrat's term-formation principles and the semantic-functional adaptation of artificial intelligence terms into Uzbek	93
Pazilova N.M., Imomova Z.M.	Speech strategies and gender roles in Abdurauf Fitrat's family discourse: a linguopragmatic analysis of "Oila"	100
Shakurova N.Kh.	National-cultural and cognitive features of the concept "Mother" in English and Uzbek	107
Abdujalilov M.I.	The linguistic nature of lexical units denoting attributes in Uzbek and Russian	117
Chulliyev N.A.	The theoretical foundations of constructing and expressing collective knowledge in political discourse	128
Song D.	Multilingual guided interpretation mechanisms for foreign tourists in living museums: A case study of the Konigil Tourism Village in Samarkand	138

Semantic gradation and stylistic differentiation of verbs expressing smiling in English and Uzbek

Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi
njorayeva461@gmail.com
Teacher, Department of Practical English,
Termez State Pedagogical Institute

Annotation *This article presents a comparative study of the semantic gradation and stylistic differentiation of verbs denoting smiling in English and Uzbek. The study aims to identify the common and distinctive semantic features of these verbs and to examine their degrees of intensity, connotative meanings, and stylistic characteristics in different communicative contexts. Componential, lexical-semantic, contextual, and comparative methods are employed in the research. The denotative and connotative meanings of the English verbs smile, grin, beam, smirk, and sneer, as well as the Uzbek verbs tabassum qilmoq, jilmaymoq, kulimsiramoq, irjaymoq, and tirjaymoq, are analyzed. The findings reveal that the degree of facial expression does not always correspond to the emotional and evaluative meanings of these verbs. While some verbs convey sincerity and friendliness, others express irony, contempt, or negative attitudes. The study demonstrates that semantic gradation and stylistic differentiation, although interconnected, are based on distinct linguistic criteria. Particular attention is paid to contextual variations in evaluative meaning. The findings contribute to understanding cross-linguistic similarities and differences and provide a theoretical basis for translation studies and further comparative linguistic research.*

Keywords *Smiling verbs, semantic gradation, stylistic differentiation, connotation, componential analysis, contrastive linguistics*

Ingliz va O'zbek tillarida tabassumni ifodalovchi fe'llarning semantik darajalanishi va stilistik farqlanishi

Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi
njorayeva461@gmail.com
Amaliy ingliz tili kafedrasi o'qituvchisi,
Termiz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida tabassumni ifodalovchi fe'llarning semantik darajalanishi va uslubiy farqlanishi chog'ishtirma jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi ushbu fe'llarning umumiy va farqlovchi semalarini aniqlash, intensivlik darajasi, konnotativ bo'yoqdorligi va nutqiy kontekstdagi funksional xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Ishda komponent, leksik-semantik, kontekstual va chog'ishtirma tahlil metodlari qo'llanilgan. Ingliz tilidagi smile, grin, beam, smirk, sneer hamda o'zbek tilidagi tabassum qilmoq, jilmaymoq, kulimsiramoq, irjaymoq, tirjaymoq fe'llarining denotativ va konnotativ ma'nolari o'rganilgan. Tahlil davomida yuz ifodasining tashqi namoyon bo'lish darajasi har doim ham hissiy-baholovchi mazmun bilan mutanosib emasligi aniqlangan. Xususan, ayrim fe'llar samimiylik va xushmuomalalikni ifodalasa, boshqalari kinoya, mensimaslik yoki salbiy munosabatni bildirishi ko'rsatilgan. Semantik darajalanish va uslubiy farqlanish o'zaro bog'liq bo'lishiga qaramay, alohida lingvistik mezonlar asosida tavsiflangan. Shuningdek, kontekst ta'sirida fe'llarning baholovchi ma'nosi o'zgarishi mumkinligi asoslangan. Olingan natijalar ikki tildagi tabassum fe'llarining*

semantik-funksional muvofiqligi va milliy-uslubiy tafovutlarini yoritishga xizmat qiladi. Bu esa tarjima amaliyoti va leksik-semantik tadqiqotlar uchun ham muhim nazariy asos yaratadi. Tadqiqot xulosalari kelgusidagi qiyosiy lingvistik izlanishlar uchun foydalidir.

Kalit so'zlar *Tabassum fe'llari, semantik darajalanish, uslubiy farqlanish, konnotatsiya, komponent tahlil, chog'ishtirma tilshunoslik*

Семантическая градация и стилистическая дифференциация глаголов, выражающих улыбку, в английском и узбекском языках

Жураева Нилуфар Собиржон кизи
njorayeva461@gmail.com
Преподаватель кафедры практического английского языка,
Термезский государственный педагогический институт

Аннотация *В данной статье проводится сопоставительное исследование семантической градации и стилистической дифференциации глаголов, обозначающих улыбку, в английском и узбекском языках. Цель исследования заключается в выявлении общих и дифференциальных сем данных глаголов, а также в сравнительном анализе степени их интенсивности, коннотативной окраски и функциональных особенностей в речевом контексте. В работе применяются методы компонентного, лексико-семантического, контекстуального и сопоставительного анализа. Рассматриваются денотативные и коннотативные значения английских глаголов smile, grin, beam, smirk, sneer и узбекских единиц tabassum qilmoq, jilmaytmoq, kulimsiramoq, irjaytmoq, tirjaytmoq. В результате анализа установлено, что степень внешнего проявления мимического движения не всегда соответствует эмоционально-оценочному содержанию глаголов. Выявлено, что одни глаголы выражают искренность и доброжелательность, тогда как другие передают иронию, пренебрежение или отрицательное отношение. Обосновано, что семантическая градация и стилистическая дифференциация, несмотря на взаимосвязь, основываются на самостоятельных лингвистических критериях. Особое внимание уделяется изменению оценочных значений глаголов под влиянием контекста. Полученные результаты способствуют выявлению семантико-функциональных соответствий и национально-стилистических различий глаголов улыбки в двух языках, а также имеют теоретическое значение для переводческой практики и дальнейших сопоставительных лингвистических исследований.*

Ключевые слова *Глаголы улыбки, семантическая градация, стилистическая дифференциация, коннотация, компонентный анализ, сопоставительное языкознание*

Zamonaviy tilshunoslikda hissiy holatlarni ifodalovchi fe'llarning semantik xususiyatlarini o'rganish leksik ma'no, baholash kategoriyasi va nutqiy kontekst o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, tabassumni ifodalovchi fe'llar inson yuzida yuzaga keladigan muayyan harakatni nomlash bilan birga, uning hissiy holati, kommunikativ niyati va suhbatdoshga munosabatini ham aks ettiradi. Shu sababli mazkur birliklarning semantik darajalanishi va stilistik differensiatsiyasini tadqiq etishda leksik semantika, kognitiv kategoriyalash hamda pragmatik-stilistik yondashuvlarni o'zaro uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Leksik birliklar o'rtasidagi ma'no munosabatlarini tizimli o'rganishda J. Lyons (1977) va D.A. Cruse (1986) tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar muhim o'rin tutadi. Lyons leksik ma'noni til tizimidagi sinonimik, antonimik va giponimik munosabatlar orqali tavsiflashga e'tibor qaratsa, Cruse semantik yaqinlikni aniqlashda leksik birliklarning kontekstual mosligi va differensial ma'no belgilariga alohida ahamiyat beradi. Ushbu qarashlar bir-birini to'ldiradi: Lyons yondashuvi tabassumni ifodalovchi fe'llarning umumiy semantik maydonga mansubligini izohlashga xizmat qilsa, Cruse nazariyasi ularning o'zaro to'liq sinonim emasligini asoslash imkonini beradi. Jumladan, ingliz tilidagi *smile, grin, beam, smirk* fe'llari tabassum bilan bog'liq umumiy semantik komponentga ega bo'libgina qolmay, yuz harakatining ko'rinishi, hissiy intensivligi va baholovchi ma'nosiga ko'ra farqlanadi. O'zbek tilidagi *jilmaymoq, kulimsiramoq, iljaymoq, irjaymoq* birliklarida ham shunga o'xshash semantik farqlanish kuzatiladi.

Mazkur farqlarni yanada chuqurroq izohlashda A. Wierzbickaning (1996) tabiiy semantik metatilga asoslangan yondashuvi va G. Lakoffning (1987) kognitiv kategoriyalash nazariyasi o'zaro metodologik jihatdan bog'lanadi. Wierzbicka murakkab hissiy ma'nolarni sodda semantik komponentlar orqali izohlashga intiladi, Lakoff esa kategoriyalar tarkibidagi birliklarning prototipik markaziyligi va o'zaro farqlanishini tushuntirishga e'tibor qaratadi. Ushbu ikki yondashuvni tabassum fe'llariga tatbiq etish orqali *smile* va *tabassum qilmoq* birliklarining umumiy nomlovchi xususiyatlarini, *grin, beam, smirk* hamda *jilmaymoq, irjaymoq, tirjaymoq* kabi fe'llarning esa farqlovchi semantik belgilarini aniqlash mumkin. Biroq fe'lning semantik maydondagi markaziyligi uning intensivlik darajasi bilan aynan bir hodisa emas. Masalan, *smirk* fe'lining salbiy baholovchi ma'nosi tabassum harakatining kuchliroq ekanini anglatmaydi. Demak, semantik darajalanish yuz ifodasining intensivligini, konnotatsiya esa ushbu ifodaga bog'langan baholovchi munosabatni tavsiflovchi alohida kategoriyalar hisoblanadi.

Baholovchi ma'no va stilistik xususiyatlarning o'zaro munosabatini aniqlashda N.D. Arutyunova (1988) hamda I.V. Arnoldning stilistikaga oid qarashlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Arutyunova til birliklarining baholovchi mazmunini semantik kategoriya deb tadqiq etib, bu borada tilshunos Arnold leksik vositalarning ekspressivligi va matndagi stilistik funksiyalarini tahlil qiladi. Mazkur yondashuvlarning qiyosiy talqini tabassumni ifodalovchi fe'llarda lug'aviy konnotatsiya bilan kontekstual stilistik ma'noni farqlash zarurligini ko'rsatadi. Xususan, *beam* fe'lida ijobiy emotsional mazmun, *smirk* va *sneer* birliklarida esa ko'pincha salbiy baholovchi komponent ustunlik qiladi. O'zbek tilida *jilmaymoq* va *kulimsiramoq* nisbatan neytral yoki ijobiy vaziyatlarda qo'llanishi mumkin bo'lsa, *irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq* fe'llarida salbiy ekspressivlik kuchliroq namoyon bo'lishi mumkin. Biroq mazkur birliklarning yakuniy talqini nutqiy kontekstga ham bog'liq bo'lib, bu holat leksik ma'no va stilistik funksiyaning o'zaro aloqadorligini tasdiqlaydi.

Tabassum fe'llarining kontekstual xususiyatlarini izohlashda V.I. Karasikning (2004) diskurs va kommunikativ munosabatlarga oid qarashlari Sh. Safarovning (2006) kognitiv tilshunoslikka doir yondashuvi bilan mazmunan uyg'unlashadi. Karasik til birliklarining kommunikativ vaziyat va shaxslararo munosabatlar bilan bog'liqligiga e'tibor qaratadi, Safarov lisoniy ma'noni insonning bilish faoliyati va konseptual tajribasi bilan bog'liq holda o'rganadi. Ushbu qarashlar tabassumni ifodalovchi fe'llarning ma'nosi faqat lug'aviy tarkib bilan belgilanmasdan, so'zlovchining niyati, suhbatdoshga munosabati va nutqiy vaziyat ta'sirida ham shakllanishini tushuntirish imkonini beradi. Shu jihatdan ingliz tilidagi *smile* yoki o'zbek tilidagi *jilmaymoq* fe'li turli kontekstlarda samimiyat, xushmuomalalik, noqulaylik yoki yashirin kinoyani ifodalashi mumkin. Bunday holatda fe'lning asosiy denotativ ma'nosi saqlangan holda, uning pragmatik va stilistik talqini o'zgaradi.

Yuqoridagi nazariy qarashlar umumlashtirilganda, tabassumni ifodalovchi fe'llarni uch asosiy mezon asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq: semantik intensivlik**,** konnotativ baho va kontekstual-stilistik vazifa**.** Birinchi mezon yuz ifodasining kuchi va tashqi namoyon bo'lish darajasini, ikkinchisi fe'lga xos ijobiy, neytral yoki salbiy baholovchi komponentlarni, uchinchisi esa muayyan kommunikativ vaziyatda yuzaga keladigan stilistik ma'noni aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu mezonlarning o'zaro farqlanishi ingliz va o'zbek tillarida tabassumni ifodalovchi fe'llarning semantik darajalanishi hamda stilistik farqlanishini izchil chog'ishtirish imkonini beradi.

Tadqiqotda ingliz tilidagi *smile, grin, beam, smirk, sneer, leer, simper* hamda o'zbek tilidagi *tabassum qilmoq, jilmaymoq, kulimsiramoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq* fe'llarining semantik darajalanishi va uslubiy farqlanishi chog'ishtirma aspektda o'rganildi. Tahlilda komponent, leksik-semantik, kontekstual va chog'ishtirma metodlardan foydalanildi. Fe'llarning denotativ ma'nosi, intensivlik darajasi, konnotativ bo'yoqdorligi hamda nutqiy vaziyatdagi uslubiy vazifalari asosiy tahlil mezonlari deb belgilandi. Bunda tabassumning tashqi ifodalanish darajasi bilan uning hissiy-baholovchi mazmuni o'zaro farqlandi. *Laugh, chuckle, giggle, kulmoq, qahqahlamoq* birliklari kulgi semantik maydoniga mansubligi sababli alohida ko'rib chiqildi. Tadqiqot avvalgi struktur-semantik kuzatishlariga tayangan holda tabassumni ifodalovchi fe'llarning umumiy va farqlovchi semalarini, shuningdek, ikki tildagi semantik-funksional muvofiqlik va tafovutlarni aniqlashga qaratildi.

Ingliz va o'zbek tillarida tabassumni ifodalovchi fe'llar umumiy denotativ belgi asosida bir semantik maydonga birlashsa ham, harakatning tashqi ko'rinishi, hissiy mazmuni va baholovchi semalariga ko'ra farqlanadi. Ingliz tilidagi *smile* tabassumning umumiy ifodasi bo'lsa, *grin* keng tabassumni, *beam* quvonch va mamnuniyatning yorqin namoyon bo'lishini anglatadi. *Smirk* fe'lida o'zidan mamnunlik yoki ustunlik, *sneer*da mensimaslik, *leer*da nomaqbul qarash, *simper*da esa sun'iylik semalari ustunlik qiladi. O'zbek tilida *tabassum qilmoq* umumiy nomlovchi birlik sifatida, *jilmaymoq* va *kulimsiramoq* yengil tabassumni ifodalovchi vositalar bo'lib ajralib turadi. *Iljaymoq* fe'lining baholovchi mazmuni kontekstga bog'liq, *irjaymoq, tirjaymoq*, *ishshaymoq* va *irshaymoq* birliklarida ko'pincha salbiy ekspressivlik kuzatiladi. Cambridge Dictionaryda qayd etilgan *grinned at me*, *beamed at his teacher*, *smirked his way through the interview* va *he sneered* kabi qo'llanishlar ushbu birliklarning semantik va pragmatik xususiyatlari bir xil emasligini ko'rsatadi. O'zbek badiiy matnlarida ham shunga o'xshash differensiallashuv kuzatiladi. P. Tursunning "O'qituvchi" asarida *nomus qilgandek iljayib* birikmasi tortinish holatini anglatsa, M. Ismoiliyning "Farg'ona tong otguncha" asaridagi *kuydirgan kalladay irjayib* ifodasida salbiy ekspressivlik ustunlik qiladi. Oybekning "Tanlangan asarlar" asaridagi *tirjayib, egri-bugri*

tishlarining oqini ko'rsatdi jumlasida yuz harakatining tashqi ko'rinishi aniqlashtiriladi. Shuhratning "Shinelli yillar" asarida uchraydigan *surbetlarcha ishshayib* birikmasi esa ravish vositasida salbiy bahoning kuchayishini namoyon etadi. Demak, mazkur fe'llarning semantik yaqinligi ularning to'liq sinonimligini anglatmaydi.

Tabassum fe'llarining semantik darajalanishi yuz harakatining tashqi namoyon bo'lishi va hissiy intensivligiga asoslanadi. Ingliz tilida *smile* intensivlik jihatidan belgilanmagan umumiy birlik bo'lsa, *grin* tabassumning kengligi, *beam* esa yorqin emotsional ifodasi bilan ajralib turadi. O'zbek tilidagi *jilmaymoq* va *kulimsiramoq* yengil tabassumni bildiradi, *tabassum qilmoq* esa harakatning muayyan darajasini qat'iy belgilamaydi. *Iljaymoq, irjaymoq* va *tirjaymoq* fe'llarida yuz harakatining ko'rinishi bilan birga baholovchi semalar ham muhim o'rin tutadi. Shu bois mazkur birliklarni faqat kuchsizdan kuchliga qarab joylashtirish ularning semantik tabiatini to'liq aks ettirmaydi. Xususan, *smirk* va *sneer* fe'llaridagi salbiy baho harakat intensivligining yuqoriligini bildirmaydi. Binobarin, semantik darajalanishda yuz ifodasining kengligi, hissiy kuchi va konnotativ mazmuni alohida mezonlar bo'lib xizmat qiladi.

TABASSUMNI IFODALOVCHI FE'LLAR		
Yuz harakatining ko'rinishi	**Emotsional mazmun**	**Baho va uslubiy talqin**
Yengil: *jilmaymoq, kulimsiramoq* Umumiy: *smile, tabassum qilmoq* Keng: *grin* (tishlar ko'rinishi mumkin)	Ijobiy: *beam; jilmaymoq* Kontekstga bog'liq: *smile, iljaymoq*	Salbiy konnotatsiya: *smirk, sneer, leer; irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq* Kontekstual istehzo: *simper, kulmoq*

1-rasm. *Ingliz va o'zbek tillarida tabassum fe'llarining semantik xususiyatlari*

Tabassumni ifodalovchi fe'llarning uslubiy farqlanishi ularning konnotativ bo'yoqdorligi va nutqiy kontekstda bajaradigan vazifalari bilan belgilanadi. Ingliz tilidagi *smile* hamda o'zbek tilidagi *tabassum qilmoq, jilmaymoq* nisbatan neytral birliklar bo'lib, kontekstga qarab samimiyat, xushmuomalalik yoki istehzoni ifodalashi mumkin. *Beam* fe'lida ijobiy hissiy ekspressivlik, *smirk, sneer* va *leer* birliklarida esa salbiy baholovchi mazmun ustunlik qiladi. O'zbek tilidagi *irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq* fe'llari ham ko'pincha salbiy munosabatni ifodalovchi ekspressiv vositalar sifatida qo'llanadi. Biroq fe'lning lug'aviy konnotatsiyasi bilan kontekstda shakllanadigan uslubiy ma'noni bir xil hisoblash mumkin emas. Masalan, *smile* va *kulmoq* leksemalarida salbiy baho fe'lning asosiy ma'nosidan emas, balki uning sintagmatik qurshovidan yuzaga keladi. Bu holat tabassum fe'llarining uslubiy imkoniyatlari leksik ma'no va kontekstual vositalarning o'zaro ta'siri orqali namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Ingliz va o'zbek tillarida tabassumni ifodalovchi fe'llarning chog'ishtirma tahlili ularning umumiy denotativ asosga ega bo'lishiga qaramay, semantik darajalanishi, konnotativ bo'yoqdorligi va uslubiy xususiyatlariga ko'ra farqlanishini ko'rsatdi. Ingliz tilidagi *smile, grin, beam, smirk, sneer* hamda o'zbek tilidagi *tabassum qilmoq, jilmaymoq, kulimsiramoq, irjaymoq, tirjaymoq* kabi birliklarning ma'no tarkibida yuz harakatining tashqi ifodasi bilan bir qatorda hissiy-baholovchi semalar ham muhim o'rin tutishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, semantik darajalanish va uslubiy farqlanish o'zaro bog'liq, biroq mustaqil lingvistik hodisalardir. Semantik darajalanish tabassum harakatining

intensivligi va namoyon bo‘lish xususiyatlarini ifodalasa, uslubiy farqlanish fe’llarning konnotativ mazmuni, ekspressivligi va nutqiy kontekstdagi vazifalari bilan belgilanadi. Xususan, *grin* va *beam* birliklarida yuz ifodasining kengligi yoki ijobiy hissiy kuchi ustunlik qilib, *smirk* va *sneer* fe’llarida salbiy baholovchi semalar asosiy farqlovchi belgi hisoblanadi. O‘zbek tilidagi *jilmaymoq* va *kulimsiramoq* nisbatan yengil tabassumni ifodalashi, irjaymoq va tirjaymoq birliklarida esa salbiy ekspressivlikning kuchliroq namoyon bo‘lishi kuzatiladi.

Har ikki tilda tabassumning umumiy, intensiv va baholovchi ko‘rinishlarini ifodalovchi vositalarning mavjudligi izomorfik xususiyatni tashkil etsa, ularning semantik tarkibi, uslubiy bo‘yoqdorligi va kontekstual qo‘llanishidagi tafovutlar allomorfik belgilar namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, tabassumni ifodalovchi fe’llarni faqat intensivlik darajasiga ko‘ra emas, balki denotativ, konnotativ va pragmatik-stilistik komponentlar birligida tadqiq etish ularning semantik-funksional xususiyatlarini aniqroq tavsiflash imkonini beradi. Mazkur yondashuv ingliz va o‘zbek tillaridagi emotsional leksikani chog‘ishtirma o‘rganish hamda tarjimada ma’no nozikliklarini saqlash uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

References:

1. Arutyunova, N. D. (1988). *Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт*. Наука.
2. Arnold, I. V. (2002). *Стилистика современного английского языка (стилистика декодирования)*. Флинта; Наука.
3. Cruse, D. A. (1986). *Lexical semantics*. Cambridge University Press.
4. Karasik, V. I. (2004). *Языковой круг: личность, концепты, дискурс*. Гнозис.
5. Lakoff, G. (1987). *Women, fire, and dangerous things: What categories reveal about the mind*. University of Chicago Press.
6. Lyons, J. (1977). *Semantics*. Vols. 1–2. Cambridge University Press.
7. Safarov, Sh. (2006). *Kognitiv tilshunoslik*. Sangzor.
8. Wierzbicka, A. (1996). *Semantics: Primes and universals*. Oxford University Press.